

YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA HUDUDDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Razzoqov Javohir Nazirjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0007-5801-3778

E-mail: j.razzoqov@tsue.uz

Аннотация

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sharoitida hududdagi sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tadqiq qilindi. Tadqiqotda ESG boshqaruvi, xalqaro hisobot standartlari, yashil moliya va sirkulyar iqtisodiyot yondashuvlari o‘rganildi. Korxonalar faoliyatini ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari asosida baholovchi integral barqarorlik indeksi ishlab chiqildi. Natijalar sanoat korxonalarini barqaror, o‘rtacha barqaror va xavfli toifalarga ajratish imkonini berganini ko‘rsatdi. Shuningdek, “Yashil universitet - Yashil korxonalar - Aholi” modeli asosida hududiy klaster mexanizmi taklif qilindi. Tadqiqot natijalari yashil investitsiyalarni jalb qilish, resurs samaradorligini oshirish va hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Калит so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ESG boshqaruvi, barqaror rivojlanish, sanoat korxonalarini, integral indeks, yashil moliya, sirkulyar iqtisodiyot, hududiy klaster.

Аннотация

В данной статье исследован организационно-экономический механизм управления деятельностью промышленных предприятий региона в условиях зеленой экономики и устойчивого развития. В исследовании были рассмотрены подходы ESG-управления, международные стандарты отчетности, зеленое финансирование и циркулярная экономика. Разработан интегральный индекс устойчивости, оценивающий деятельность предприятий по экологическим, экономическим, социальным и управленческим показателям. Результаты показали возможность классификации предприятий на устойчивые, среднеустойчивые и рискованные категории. Также была предложена региональная кластерная модель «Зеленый университет - Зеленое предприятие - Население». Полученные результаты послужили практической основой для привлечения зеленых инвестиций, повышения ресурсной эффективности и совершенствования региональной промышленной политики.

Ключевые слова: зеленая экономика, ESG-управление, устойчивое развитие, промышленные предприятия, интегральный индекс, зеленое финансирование, циркулярная экономика, региональный кластер.

Abstract

This article examined the organizational and economic mechanism for managing industrial enterprises in the context of a green economy and sustainable regional development. The study analyzed ESG management approaches, international reporting standards, green finance, and circular economy principles. An integrated

sustainability index was developed to evaluate enterprises based on environmental, economic, social, and governance indicators. The findings demonstrated the possibility of classifying enterprises into sustainable, moderately sustainable, and high-risk categories. In addition, a regional cluster model based on the “Green University - Green Enterprise - Community” framework was proposed. The research results provided a practical basis for attracting green investments, improving resource efficiency, and enhancing regional industrial policy mechanisms.

Keywords: green economy, ESG management, sustainable development, industrial enterprises, integrated index, green finance, circular economy, regional cluster.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekologik cheklovlar, resurs tanqisligi, energiya narxlarining oʻzgaruvchanligi va investorlarda mas’uliyatli moliyalashtirish talablarining kuchayishi sanoat korxonalarini boshqaruvini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy oʻsish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik oʻrtasidagi muvozanatga erishishni nazarda tutadi [1]. Bunda korxonalar faqat mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlar emas, balki resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, mehnat sharoitini yaxshilash, korporativ boshqaruv shaffofligini ta’minlash va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik qiluvchi tizim sifatida qaraladi.

Oʻzbekiston sharoitida mazkur masala alohida dolzarbdir. 2019-2030 yillarda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi [2] energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari intensivligini pasaytirish, toza texnologiyalarni kengaytirish va hududlarning barqaror rivojlanishini jadallashtirish vazifalarini belgilaydi. Sanoat korxonalarini ushbu jarayonning markaziy boʻgʻini hisoblanadi, chunki energiya, suv, xomashyo va chiqindi oqimlarining katta qismi aynan ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllanadi.

ESG atamasi 2004-yilda BMT Global shartnomasi tashabbusi bilan tayyorlangan “Who Cares Wins” hisobotida [4] boshqaruv qarorlariga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini kiritish zarurati bilan keng muomalaga kirdi. 2006-yilda BMTning Mas’uliyatli investitsiya tamoyillari ESG omillarini investitsion tahlil [5] va mulkdorlik amaliyotiga kiritishni alohida yoʻnalish sifatida mustahkamladi. Bugungi kunda ESG yondashuvi sanoat korxonalarining kreditga kirishi, eksport zanjirlariga qoʻshilishi, xalqaro investorlar bilan ishlashi va mahalliy isteʼmolchilar ishonchini qozonishida muhim shartga aylanmoqda.

Hududlarda koʻplab sanoat korxonalarini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv maʼlumotlarini bir-biridan ajralgan holda yuritadi; energiya sarfi va chiqindi hisoboti moliyaviy rejalashtirish bilan bogʻlanmagan; korxonalar barqarorlik darajasi boʻyicha baholanmaydi; resurs va chiqindi almashinuvining hududiy bozori yetarli shakllanmagan. Natijada yashil investitsiyalar, bank kreditlari va davlat qoʻllab-quvvatlash choralari aniq koʻrsatkichlarga tayangan holda yoʻnaltirilmaydi. Mazkur maqola shu boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni taklif etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish nazariyasida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida talqin qilinadi [3]. ESG esa ushbu uchlikni korxonalar boshqaruvi darajasiga tushiradi: E blokida resurs samaradorligi, emissiya, chiqindi, suv va energiya; S blokida mehnat xavfsizligi, inson kapitali, hududiy manfaatdor tomonlar; G blokida shaffoflik, risklarni boshqarish, komplayens va boshqaruv javobgarligi baholanadi. Demak, barqaror rivojlanish strategik maqsadni ifodalasa, ESG uni korxonalar qarorlarida o‘lchash va nazorat qilish vositasidir.

GRI standartlari tashkilotning iqtisodiyot, atrof-muhit va odamlarga ta‘sirini ochib berishga yo‘naltirilgan [6]. Uning universal, sektor va mavzu standartlari korxonalar uchun muhim mavzularni aniqlash, manfaatdor tomonlar bilan ishlash va ta‘sirlarni ochiq ko‘rsatish imkonini beradi. SASB standartlari esa investorlar uchun moliyaviy jihatdan muhim bo‘lgan tarmoq xatar [7] va imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan. TCFD tavsiyalari iqlim bilan bog‘liq risklarni boshqaruv, strategiya, risk-menejment [8], ko‘rsatkich va maqsadlar orqali ochishni taklif etgan; 2023-yildan so‘ng bu yondashuv IFRS S1 va IFRS S2 talablariga singdirilgan. UNGCning o‘n tamoyili inson huquqlari, mehnat, atrof-muhit va korrupsiyaga qarshi kurash [9] bo‘yicha mas‘ul biznes yuritish mezonlarini beradi.

Mavjud tadqiqotlarda ESG ko‘rsatkichlari, yashil moliya va sirkulyar iqtisodiyot ko‘pincha alohida o‘rganiladi [10]. Hududiy sanoat boshqaruvida esa bu elementlar yagona mexanizmga birlashtirilishi lozim: korxonalar ichidagi ESG tuzilma hisobot va qarorlarni yuritadi; integral indeks korxonalar baholaydi; sertifikatlash bank va davlat qo‘llab-quvvatlashini differensiallashtiradi; yashil klaster chiqindi va resurs oqimlarini bog‘laydi; UNGC tamoyillari esa investor ishonchini oshiruvchi institut vazifasini bajaradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli tahlil, indikatorlar usuli, ekspert og‘irliklari, indekslashtirish, ssenariyli prognozlash va tashkiliy modellashtirish yondashuvlaridan foydalanildi. Metodologik model hududdagi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish darajasini 0 dan 100 ballgacha baholash, ularni toifalash va boshqaruv qarorlariga bog‘lashga asoslanadi. Amaliy joriy etishda korxonalar bo‘yicha energiya, suv, chiqindi, emissiya, mehnat xavfsizligi, moliyaviy samaradorlik, investitsiya va boshqaruv shaffofligi ma‘lumotlari yillik kesimda yig‘iladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Integral barqarorlik indeksi quyidagi umumiy ko‘rinishda hisoblanadi:

$$IBR = \sum(w_i \times N_i)$$

bu yerda:

- IBR - integral barqarorlik reytingi;
- w_i - i -indikatorning og‘irlik koeffitsiyenti;
- N_i - 0-100 oralig‘ida normallashtirilgan indikator qiymati.

Ijobiy indikatorlar uchun yuqori qiymat yuqori ball beradi; salbiy indikatorlar, masalan, mahsulot birligiga energiya sarfi yoki chiqindi ulushi uchun teskari

normallashtirish qoʻllanadi. Ogʻirliklar hududiy sanoat siyosati maqsadlari va investorlar talabi asosida belgilanadi.

Indeks natijalari uch toifaga ajratiladi: 70 balldan yuqori korxonalar - barqaror; 50-69 ball oraligʻidagi korxonalar - oʻrtacha barqaror; 50 balldan past korxonalar - xavfli. Toifalash faqat reyting emas, balki iqtisodiy ragʻbat vositasidir: barqaror korxonalar yashil kreditlar boʻyicha imtiyozli stavka, davlat xaridlarida ustunlik va eksport zanjirlariga ulanish yengilliklari beriladi; oʻrtacha barqaror korxonalar uchun modernizatsiya dasturi belgilanadi; xavfli korxonalar esa ekologik audit va resurs samaradorligi rejasini majburiy ishlab chiqadi.

1-jadval.

Hududiy sanoat korxonalarini uchun ESG boshqaruv modelining tarkibi¹

Blok	Asosiy vazifa	Joriy etish mexanizmi	Kutiladigan natija
E - ekologik boshqaruv	Energiya, suv, emissiya va chiqindilarni kamaytirish	GRI 302, 303, 305, 306 koʻrsatkichlari; TCFD/IFRS S2 iqlim risk xaritasi; energiya auditi	Resurs tejamkorligi, ekologik xarajatlarning pasayishi, yashil sertifikatga tayyorlik
S - ijtimoiy boshqaruv	Mehnat xavfsizligi, kadrlar malakasi va hududiy manfaatdor tomonlar bilan ishlash	GRI 401, 403, 404; mahalliy aholi bilan maslahatlashuv; dual taʼlim va qayta tayyorlash	Ish unumdorligi va ijtimoiy ishonchning oshishi
G - korporativ boshqaruv	Shaffof qaror qabul qilish, risk-menejment va komplayens	Kuzatuv kengashi qoshida ESG qoʻmitasi; SASB tarmoq koʻrsatkichlari; UNGC tamoyillari boʻyicha kodeks	Investorlar va banklar uchun ishonchli axborot bazasi
Moliya bloki	Yashil investitsiya va kreditlarni jalb qilish	Sertifikatlangan reyting, yashil loyiha pasporti, KPIga bogʻlangan kredit shartlari	Kapital qiymatining pasayishi va modernizatsiya tezlashishi

2-jadval.

Integral barqarorlik indeksini hisoblash uchun indikatorlar tizimi²

Yoʻnalish	Indikator	Normallashtirish talqini	Ogʻirlik
Ekologik	Mahsulot birligiga energiya sarfi	Kamaysa ball oshadi	0,12
Ekologik	Qayta ishlangan yoki qayta foydalanilgan chiqindi ulushi	Oshsa ball oshadi	0,10
Ekologik	Suv tejamkorligi va aylanma suv ulushi	Oshsa ball oshadi	0,08
Iqtisodiy	Yashil texnologiyalarga investitsiya ulushi	Oshsa ball oshadi	0,12
Iqtisodiy	Resurs tejamkorligi hisobiga tannarx pasayishi	Oshsa ball oshadi	0,10
Ijtimoiy	Mehnat xavfsizligi va malaka oshirish qamrovi	Oshsa ball oshadi	0,12
Boshqaruv	ESG hisobotining GRI/SASBga mosligi	Oshsa ball oshadi	0,14

¹ Ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi

² Ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi

Yo‘nalish	Indikator	Normallashtirish talqini	Og‘irlik
Boshqaruv	Iqlim risklari bo‘yicha TCFD/IFRS yondashuvi	Oshsa ball oshadi	0,10
Kooperatsiya	Sirkulyar almashuv shartnomalari va klasterda ishtirok	Oshsa ball oshadi	0,12

Birinchi va ikkinchi jadvallar tahlilidan kelib chiqib besh bog‘langan moduldan iborat tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilmoqda. Birinchi modul - korxonada ichki ESG boshqaruv arxitekturasi: direktorlar kengashi yoki rahbariyat qoshida ESG qo‘mitasi, ishlab chiqarish bo‘linmalarida resurs samaradorligi mas‘ullari, moliya bo‘limida yashil loyiha portfeli, kadrlar bo‘limida mehnat xavfsizligi va malaka ko‘rsatkichlari yuritiladi. Ikkinchi modul - ma‘lumot va hisobot moduli: GRI ta‘sir ko‘rsatkichlari, SASB tarmoq materialligi va TCFD/IFRS iqlim risklari yagona ESG pasportiga birlashtiriladi. Uchinchi modul - integral baholash va sertifikatlash. Korxonada yillik ko‘rsatkichlari indeksga aylantiriladi, reyting toifasi belgilanadi va sertifikat beriladi. To‘rtinchi modul - yashil moliya: banklar va hududiy rivojlanish institutlari sertifikat natijalarini kredit stavkasi, garov talabi, imtiyoz va monitoring rejimiga bog‘laydi. Beshinchi modul - sirkulyar klaster: korxonalar o‘rtasida ikkilamchi xomashyo, issiqlik, suv, qadoqlash, organik va texnologik chiqindi oqimlari bo‘yicha almashinuv yo‘lga qo‘yiladi.

3-jadval.


Sanoat korxonalarini barqarorlik darajasi bo‘yicha toifalash mezonlari¹

Toifa	IBR balli	Sertifikat mazmuni	Boshqaruv qarori
Barqaror korxonada	70-100	Yashil sanoat sertifikati	Imtiyozli yashil kredit, eksport zanjirlariga ulash, davlat xaridlarida ustunlik
O‘rtacha barqaror korxonada	50-69	Modernizatsiya sharti bilan sertifikat	Energiya auditi, texnologik yangilash rejasi, 12-24 oylik monitoring
Xavfli korxonada	0-49	Sertifikat berilmaydi	Majburiy ekologik audit, chiqindi va resurs rejasi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni shartli qilish

Namuna sifatida 30 ta sanoat korxonasi bo‘yicha indekslash yondashuvi qo‘llanganda korxonalarining 36,7 foizi barqaror, 43,3 foizi o‘rtacha barqaror va 20,0 foizi xavfli toifaga kirishi mumkinligi aniqlandi. Bu tuzilma hududiy sanoat siyosati uchun muhim signal beradi: korxonalarining yarmidan ko‘prog‘i yashil moliyaga darhol emas, balki modernizatsiya sharti bilan kirishi kerak; xavfli guruhda esa resurs sarfi, chiqindi va boshqaruv shaffofligi bo‘yicha majburiy chora ko‘rilmasa, ekologik va moliyaviy risklar kuchayadi.


¹ Ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi

Barqarorlik toifalari bo'yicha korxonalar ulushi



1-rasm. Integral baholash natijasida korxonalar toifalari¹

Sirkulyar iqtisodiyot moduli hududda chiqindi va resurs almashinuvi uchun alohida bozor infratuzilmasini talab qiladi. Bunda yirik korxonaga chiqindisi kichik korxonaga uchun xomashyo, universitet laboratoriyasi uchun tadqiqot obyekti yoki aholi bandligi uchun qayta ishlash manbai bo'lishi mumkin. Shuning uchun maqolada "Yashil universitet - Yashil korxonaga - Aholi" zanjiriga asoslangan yashil sanoat klasteri taklif etiladi. Universitet ilmiy audit, laboratoriya sinovi, kadrlar tayyorlash va texnologik yechim beradi; korxonaga ishlab chiqarish oqimlari, moliya va amaliy sinov maydonini taqdim etadi; aholi esa qayta ishlash, iste'mol madaniyati, bandlik va ijtimoiy monitoring orqali klasterning barqarorligini ta'minlaydi.



Hududiy kooperatsiya markazi: resurs birjasi, sertifikatlash va yashil moliya oynasi

2-rasm. Yashil sanoat klasterining hududiy kooperatsiya modeli²

¹ Ilmiy va statistik manbalar asosida muallif tomonidan hisoblandi


² Ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Yashil moliya mexanizmi UNGC tamoyillarini korxonaga siyosati, yetkazib beruvchilar kodeksi, korrupsiyaga qarshi nazorat, mehnat standartlari va ekologik majburiyatlar bilan bogʻlaydi. Bank yoki investor uchun korxonaning faqat moliyaviy hisobotlari yetarli emas; ESG pasporti, sertifikat, iqlim risk xaritasi va UNGCga mos ichki siyosat kredit riskini baholashda qoʻshimcha dalil boʻladi. Shu orqali hududning investitsion jozibadorligi aniq va oʻlchanadigan institutsional kafolatlar hisobiga oshadi.

4-jadval.

2025-2030 yillarga moʻljallangan prognoz koʻrsatkichlari¹

Koʻrsatkich	Yillar					
	2025	2026	2027	2028	2029	2030
IBR, inersion ssenariy	51	53	55	57	58	60
IBR, bazaviy ssenariy	51	56	61	66	71	76
IBR, mobilizatsion ssenariy	51	59	67	75	83	90
Yashil investitsiyalar ulushi, bazaviy, foizda	7	9	12	15	18	22
Sirkulyar almashuvga jalb qilingan chiqindi, bazaviy, foizda	8	12	17	23	30	38
Energiya sarfi kamayishi, bazaviy, 2025-yilga nisbatan, foizda	0	4	8	12	16	20



3-rasm. Barqaror rivojlanish integral indeksining ssenariyli prognozi²

Prognoz natijalariga koʻra, inersion ssenariyda indeks 2030-yilda 60 ballga yetadi va bu hududni faqat oʻrtacha barqaror darajaga olib chiqadi. Bazaviy ssenariyda

¹ Ilmiy va statistik manbalar asosida muallif tomonidan hisoblandi

² Ilmiy va statistik manbalar asosida muallif tomonidan hisoblandi

GRI/SASB hisobotlari, energiya auditi, sertifikatlash va yashil kreditlar bosqichma-bosqich joriy etilgani sababli integral indeks 76 ballga ko‘tariladi. Mobilizatsion ssenariyda esa ESG boshqaruvi majburiy korporativ standartga aylantiriladi, klaster resurs birjasi to‘liq ishlaydi, bank kreditlari KPIga bog‘lanadi va indeks 90 ballgacha oshadi. Demak, 2025-2030 yillarda hududiy siyosat faqat ekologik talablarni kuchaytirish bilan cheklanmasdan, moliyaviy rag‘bat, texnologik modernizatsiya va institutlararo kooperatsiyani bir vaqtda ishga tushirishi zarur.

Taklif etilgan mexanizmning asosiy ilmiy yangiligi ESG, xalqaro hisobot standartlari, integral indeks, sirkulyar klaster va yashil moliyani bitta boshqaruv zanjiriga birlashtirishidir. Amaliyotda ko‘plab korxonalar ekologik hisobotni nazorat organlari uchun, moliyaviy hisobotni bank uchun, ijtimoiy ma’lumotlarni esa kadrlar bo‘limi uchun alohida yuritadi. Bunday parchalangan tizim strategik boshqaruvga xizmat qilmaydi. Yagona ESG pasporti esa korxonalar rahbariyatiga qaysi xarajat ekologik riskni kamaytirishi, qaysi investitsiya energiya sarfini pasaytirishi va qaysi boshqaruv qarori kapital qiymatini arzonlashtirishini ko‘rsatadi.

GRI va SASBni birga qo‘llash ham muhim. GRI korxonaning jamiyat va atrof-muhitga ta’sirini ochadi, SASB esa investorlar uchun moliyaviy muhimlikni ajratadi. TCFD/IFRS yondashuvi iqlim xavfini strategiyaga kiritadi: suv tanqisligi, energiya narxi, uglerod talablarining kuchayishi yoki eksport bozorida ekologik standartlar oshishi kabi omillar korxonalar biznes modeliga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ESG boshqaruvi faqat reputatsion vazifa emas, balki ishlab chiqarish tannarxi, kredit reytingi va investitsion jozibadorlikni belgilaydigan iqtisodiy mexanizmdir.

5-jadval.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni joriy etish bo‘yicha yo‘l xaritasi¹

Bosqich	Muddat	Mas’ul institutlar	Asosiy natija
Pilot diagnostika	2025-yil	Hokimlik, Savdo-sanoat palatasi, universitet, banklar	30-50 korxonalar ESG pasporti va dastlabki IBR reytingi
Standartlashtirish	2026-yil	Hududiy kooperatsiya markazi, korxonalar, auditorlar	GRI/SASB/TCFD indikatorlari bo‘yicha yagona ma’lumot shakli
Sertifikatlash va moliya	2027-2028 yil	Banklar, investitsiya agentligi, ekologiya organlari	Yashil kreditlar, KPIga bog‘langan foiz stavkasi, modernizatsiya portfeli
Klasterlash	2028-2029 yil	Universitet, sanoat zonalari, aholi bandligi markazlari	Resurs birjasi, chiqindi almashinuvi, yashil ish o‘rinlari
Kengaytirish	2030-yil	Hududiy boshqaruv organlari va biznes uyushmalari	Mobilizatsion ssenariyga yaqin integral barqarorlik ko‘rsatkichlari

Sirkulyar klaster modeli hududiy darajada qo‘shimcha qiymat yaratadi [11]. Masalan, bir korxonaning issiqlik, qadoqlash, metall, plastmassa yoki organik chiqindisi boshqa korxonalar uchun arzon xomashyo bo‘lishi mumkin. Bunday

¹ Ilmiy va statistik manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

almashuvni bozorning o‘zi har doim ham tez shakllantira olmaydi, chunki ma’lumot assimetriyasi, sifat standarti, logistika va huquqiy javobgarlik muammolari bor. Hududiy kooperatsiya markazi shu muammolarni hal etadi: chiqindi oqimlarini ro‘yxatga oladi, sifat pasportini beradi, shartnomalarni standartlashtiradi va universitet laboratoriyasi orqali texnologik yechimni tekshiradi.

Mexanizmni joriy etishda ayrim cheklovlar mavjud. Birinchidan, korxonalarda ESG ma’lumotlarini yig‘ish madaniyati va raqamli hisob tizimlari yetarli bo‘lmasligi mumkin. Ikkinchidan, kichik va o‘rta korxonalar xalqaro standartlarni to‘liq joriy etish xarajatidan qo‘rqadi. Uchinchidan, banklarda yashil kredit riskini baholash metodikasi hali to‘liq standartlashmagan bo‘lishi mumkin. Shu bois dastlab pilot korxonalar, soddalashtirilgan ESG pasporti, hududiy maslahat markazi va bosqichma-bosqich sertifikatlash yondashuvi qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida hudud sanoat korxonalarini boshqarishning samarali mexanizmi ekologik talablar, korporativ boshqaruv, moliyaviy rag‘bat va hududiy kooperatsiyani yagona tizimga birlashtirgandagina amaliy natija beradi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ESG boshqaruv modeli korxonalar tarkibida ekologik, ijtimoiy, boshqaruv va moliya bloklarini ajratib, ularni GRI, SASB va TCFD/IFRS ko‘rsatkichlari bilan bog‘lashni taklif etadi.

Integral barqarorlik indeksi korxonalarni 0-100 ball oralig‘ida baholash, barqaror, o‘rtacha barqaror va xavfli toifalarga ajratish hamda sertifikatlash orqali boshqaruv qarorlarini aniq ko‘rsatkichlarga tayash imkonini beradi. Bu yondashuv yashil kreditlar, investitsiya imtiyozlari, ekologik audit va modernizatsiya dasturlarini differensial qo‘llashga xizmat qiladi.

“Yashil universitet - Yashil korxonalar - Aholi” zanjiriga asoslangan yashil sanoat klasteri sirkulyar iqtisodiyotning hududiy infratuzilmasini shakllantiradi [12]. Unda universitet ilmiy va kadrlar bazasini, korxonalar ishlab chiqarish va investitsiya maydonini, aholi esa qayta ishlash, iste‘mol va ijtimoiy monitoring bo‘g‘inini ta‘minlaydi. UNGC tamoyillaridan foydalanish esa biznesning mas‘uliyatli xulq-atvori, investorlar ishonchi va hududning investitsion jozibadorligini oshiradi.

2025-2030 yillarga mo‘ljallangan prognozlar shuni ko‘rsatadiki, inersion ssenariy hududni yuqori barqarorlik darajasiga olib chiqmaydi. Bazaviy ssenariyda bosqichma-bosqich sertifikatlash va yashil moliya indeksni sezilarli oshiradi. Mobilizatsion ssenariyda esa ESG boshqaruvi, klasterlash va KPIga bog‘langan moliyalashtirish to‘liq ishlasa, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari sifat jihatdan yangi bosqichga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4-oktabr 2019-yil PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>

3. International Energy Agency. Strategy for the Transition to a Green Economy for the 2019-2030 Period - Resolution No. PP-4477. Policy database, updated 2025.
4. United Nations Global Compact. Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. 2004.
5. Principles for Responsible Investment. About the PRI and the six Principles for Responsible Investment. <https://www.unpri.org/about-us/about-the-pri>
6. Global Reporting Initiative. GRI Standards: Universal, Sector and Topic Standards. <https://www.globalreporting.org/standards>
7. IFRS Foundation. SASB Standards overview and industry-based disclosure approach. <https://sasb.ifrs.org/standards>
8. IFRS Foundation. ISSB and TCFD: TCFD recommendations and IFRS S1/S2 relationship. <https://www.ifrs.org/sustainability/tcfd/>
9. United Nations Global Compact. The Ten Principles of the UN Global Compact. <https://unglobalcompact.org/what-is-gc/mission/principles>
10. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance. Management Science, 2014.
11. Porter M.E., Kramer M.R. Creating Shared Value. Harvard Business Review, 2011.
12. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. Resources, Conservation and Recycling, 2017.
13. Razzoqov J. Qayta tiklanuvchi energiya va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik: Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha empirik tahlil. (2026). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 6(01), 190-198. https://doi.org/10.55439/AFA/vol6_iss01/1305
14. Razzokov Javokhir Nazirjon ugli, & Dr. Siti Parhah. (2025). THE ECONOMICS OF RENEWABLE ENERGY AND ITS IMPACT ON ECONOMIC GROWTH. Innovation Science and Technology, 1(3), 77-81. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17427553>
15. Javokhir, R., Parhah, S., Gulshoda, Q., & Inomjon, Q. (2024). Governing Renewable Energy Transitions in Uzbekistan: Strategies for Sustainable Growth in a Fossil-Fuel-Dependent Economy. The International Journal of Business Review (The Jobs Review), 7(2), 203-210.
16. Nazirjon Razzoqovich Rajabov & Xasanova Nasiba Nazar qizi. (2024). Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari. Management and economics scientific research JOURNAL, 1(1),60-70. journals.timeedu.uz/index.php/mesr/article/view/17



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**